ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR HAQIDA

Amanov Abdijabbor Sattarovich,
Namangan davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbek tilshunosligida murakkab sintaktik butunliklar (MSB) o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha, o'zbek tilining boy va rang-barang tuzilishini chuqurroq tushunish uchun zarur bo'lgan asosiy grammatik birliklardan biridir. MSBlar, matnning ma'noviy va shakliy yaxlitligini ta'minlovchi, bir nechta mustaqil yoki bog'liq gaplardan tashkil topgan tuzilmalardir. Ularning tahlili, tilshunoslar uchun nafaqat lingvistik tuzilmaning asosini, balki tilning ifodaviy va funktsional imkoniyatlarini ochib beradi.

O'zbek tilida MSB tahlilining ahamiyati, gap tuzilmalarining murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlarini anglashda yotadi. Bu birliklar orqali tilning stilistik xususiyatlari, ma'no darajalari va nutq samaradorligi kabi jihatlar yoritiladi. Shuningdek, bu tahlil til o'rganish va o'qitish metodikasida, matn tahlilida va til modelini qurishda qo'llaniladi.

Murakkab sintaktik butunliklar, o'zbek adabiy tili grammatikasining asosiy qurilish toshlaridan biri hisoblanadi. Ular tilning sintaktik boyliklarini namoyon etuvchi asosiy vositalardir. MSB tahlili orqali biz tilning badiiy, ilmiy, publitsistik va boshqa uslublaridagi xususiyatlarini tushunish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu bilan birga, MSB tahlili til o'rganuvchilarga o'zbek tilining murakkab tuzilmalarini osonroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Bu maqola, o'zbek tilshunosligida MSBning o'rganilishi va tahlil qilinishining dolzarb masalalari, metodologiyasi, qo'llaniladigan usullar hamda kutilayotgan natijalar haqida to'liq ma'lumot berishga qaratilgan. Tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar va nazariy bilimlarning rivojlanishi bilan MSBlar tahlilining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shuning uchun ushbu maqola o'zbek tilining murakkab sintaktik tuzilmalarini chuqurroq tushunishga qaratilgan har bir kishiga foydali bo'lishi mumkin.

Matn – bu yozilgan, ko'chirilgan, bosilgan yoki irod etilgan, hajman katta va kichik bo'lishidan qat'iy nazar muayyan bir tugallikka ega bo'lgan, ma'lum bir hodisa, voqea, vaziyat, holat, hissiyot, kechinma haqida ma'lumot beruvchi ijodiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi.

Filologiya fanida matnning bir necha xil ta'riflari borligini aytib o'tdik. Xuddi shu narsa aynan matn tushunchasini tilshunoslikda o'rganilishida ham ko'zga tashlanadi. Ayrim tilshunoslar, umuman, matn degan tushunchani tilshunoslikda alohida kategoriya sifatida o'rganishning zaruriyati yo'q deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, matn gaplardan tashkil topar ekan, gaplarning o'rganilishi matnga alohida tadqiqot ob'ekti sifatida qarashga hojat qoldirmaydi. Masalan, T.V.Buligina «Til grammatik qurilishida turli sath birliklari va ularning o'zaro aloqasi» kitobida quyidagicha yozadi: «Matnda gaplar aloqasi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etsada, meningcha, matn uni tashkil etuvchi gaplar yig'indisidan o'zgacha alohida tuzilish xususiyatlarni yuzaga keltirmaydi»[1].

Biz mazkur ishimizning avvalida matnga bergan ta'rifimizni himoya qilish maqsadida quyidagicha o'xshatish qilmoqchimiz. Agar biz kishi qo'lining quyi qismi faqat kaft va barmoqlardangina tashkil topgan deb o'ylasak, unda ana shu kaft va barmoqlar birlashib yaxlit bitta mushtni hosil qilishini, kuchini va o'ziga xos xususiyatini yoddan chiqargandek bo'lamiz. Bizning bu fikrimizni I.R.Galperinning ilmiy asoslangan gaplari ham tasdiqlaydi[2]. «Katta obyektlar, xususan, matn kabi obyektlarni tadqiq etuvchi oldida ikki xavf mavjud: bir tomondan, obyekt faktlarini mayda bo'laklarga bo'lish, boshqacha qilib aytganda, obyekt birliklari ontologiyasiga chiqur kirib borish oqibatida daraxtlar ortidagi o'rmonni ilg'amaslik, ikkinchi tomondan esa, obyektni globallashtirish, alohida hodisalarga,ularning mohiyati va vazifalariga yetarli baho bermaslik birliklarning katta obyekt soyasida qolib ketishiga hamda ular haqida noaniq va xatto xato xulosalar chiqarilishiga sabab bo'ladi».

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, biz matnni alohida tilshunoslikning tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilishi, ilmiy matnlarni ham, maqola, gazeta, jurnal matnlarini ham, badiiy matnlarni ham alohida-alohida yaxlit holda olib o'rganilishi kerak va zarur deb hisoblaymiz.

[1] Булигина Т.В. Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие. – М:, 1969. – С. 224.

[2] Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С. 8.

Matnni jahon tilshunosligida J.Jenett, M.Fuko, J.Derrida, Ye.Agrikola, R.DeBeaugrande, V.U.Dressler, Y.Mistrik, V.A.Kox, M.P.Ionitse, A.A.Metsler, L.G.Fridman, Y.M.Lotmanlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida ilmiy asarlar, gazeta va jurnallar matni haqida O.Saidov va A.Shomaqsudov; badiiy asar tiliga oid I.Q.Qo‘chqortoev, A.Yu.Aliev, S.To‘rabekova, R.Q.Qo‘ng’urov, H.Nazarova, A.S.Karimov, F.Nasriddinov, E.Qilichev, P.Qodirov va boshqalarning tadqiqotlarini aytish joiz. A.Mamajonov matn tilshunosligida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan bir talay masalalarga yetarlicha munosabat bildirgan, M.To‘xsonov mikromatn va uni tashkil etuvchi birliklarni tadqiq etgan, N.Turniyozov turli vazifaviy uslubdagi matnlarni statistik metodlar asosida o‘rgangan. M. Xakimov ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini, B.Yo‘ldoshev badiiy matnni lingvopoetiksini, M.Abdupattoyev matn sintaksisi, S.Boymirzaeva esa matn hodisasi mazmuniy tuzilishining kognitiv mohiyatini tadqiq qilgan. I.Azimova psixolingvistikadagi matnning mazmuniy pertseptsiyasiga oid umumnazariy qarashlarni sharhlagan, M.Qurbonova badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari va usullari, D.Muhamedova matn va uning turlari, I.Xojaliev tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari, Sh.Shahobiddinova matnni bog’lovchi vositalarni o‘rganganlar.

Mazkur maqolada diaxron tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Matnlar faqat hajman emas, semantik, leksik-grammatik va intonatsion jihatdan ham har xil bo‘ladi. Bir matnning ikkinchi bir matn bilan va muayyan matnning o‘z ichida bog‘lanishi ham turlichadir. Ayniqsa, matn tuzilishida tutashtiruvchi vositalar (bog‘lovchilar) funksiyasini o‘rganish har jihatdan ahamiyatlidir. Bir misol: gap boshida kelgan demak, binobarin, xullas, ma’lum bo‘ladiki, ravshanki kabi vositalar muayyan qismning oldingi qism (yoki qismlar) bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Tarkibida shunday element bo‘lgan gaplar avvalgi gaplarning mazmunini to‘ldiradi.

Demak, biz matnni tilshunoslikning alohida bir kategoriyasi sifatida olar ekanmiz, unda kategoriyaning birliklari deganda nimani tushunishimiz kerak?

Tilshunoslikda bu savolga berilgan javoblar ham turlicha. Avvalo shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bu sohada rus tilshunoslari, chet el tilshunoslari bir talay ishlarni amalga oshirishgan, o‘zbek tilshunosligida bu sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar anchagina.

Matn tushunchasi atrofida qanchalar ko‘p fikrlar aytilganidek, uning birliklari to‘g‘risidagi fikrlarda ham har xilliklar uchraydi. Masalan, tilshunos olima Zinaida Sergeevna Smelkova matn birligi deganda avvalo so‘zni tushunadi[1]. «Adabiyot o‘qitish metodikasida badiiy matn birligi hisoblanuvchi badiiy asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini chuqur anglashni ta’min etuvchi so‘zni tahlil etish yo‘llari va shakllarini ishlab chiqish pedagogik jihatdan juda ham muhim».

Akademik V.V.Vinogradov bunga yanada kengroq, mufassalroq to‘xtalib quyidagilarni yozadi: «Badiiy asarda asar mazmuni bilan bog‘liq bo‘lmagan, keraksiz buyumlarning soyasiga o‘xshash so‘z bo‘lmaydi, harholda, bo‘lmasligi kerak. So‘z tanlash so‘zda borliqni aks ettirish va ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog‘liq… Butun asar matnida so‘z va ifoda o‘zaro mustahkam holda birikib, butun asarning murakkab va teranligini turli-tuman qo‘shimcha ma’nolar jilosi bilan namoyon etadi»[2].

Aynan shu olim boshqa bir kitobda matn tashkil topishida faqat nutq elementlarigina emas, balki uning boshqa xususiyatlari ham matn hosil bo‘lishida qatnashishini ko‘rsatadi: «...nafaqat nutq elemetlari, balki so‘zlovchining o‘ziga xos fikrlash tarzi bilan bog‘liq kompazitsiyon usul hamda nutq elementlaridan foydalanish shakli nutqiy birlashmalarni yuzaga keltiruvchi xususiyat sanaladi»…

Matn birliklarining bir-birlari bilan aloqadorligi va shu bilan birga yaxlitligini ta’minlovchi omillar haqida hozirgi tilshunoslikda ancha-muncha munozarali fikrlar mavjud. Tilshunos olima I.I. Kovtunova bu masalani o‘zicha hal qilishga urinadi. «Matn tilshunosligida «lokal bog‘liqlik» va «global bog‘liqlik» kabi atamalar mavjud bo‘lib, ular bog‘liqlikning ikki turini bir-biridan farqlab turadi. Lokal bog‘liqlik bu - matndagi gaplar, frazadan katta butunliklar, abzats va hokazolarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishi bo‘lsa, global bog‘liqlik matn yaxlitligini, uning ichki butunligini ta’minlovchi bog‘liqlikdir»[3].

Keltirilgan uzunma(sitata)dan ko‘rinib turibdiki, I.I.Kovtunova matn birliklari deganda avvalo gap, abzats va undan ham kattaroq bo‘lgan nutqiy parchalarni tushungan.

Bizning fikrimizcha, R.A.Veyxman bu masalani anchagina keng va mukammal izohlagan: «Matn o‘zining murakkablik darajasiga ko‘ra gapga ham, frazadan katta butunlikka ham, supersintaktik birlikka ham teng bo‘lishi, aksariyat hollarda, ularning qorishmasidan iborat bo‘lishi mumkin»[4].

Yana ayrim tilshunoslar matn birliklari deganda so‘z, morfema (shakl yasovchi qo‘shimchalar), intonatsiya va punktuatsiyani ham tushunadilar. Masalan, so‘roq belgisi, muayyan matnda so‘roq mazmu-

[1] Смелкова З.С. Слова в художественном тексте. – М., 1980. стр. 3-4.

[2] Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М., 1959. – С. 230, 234.

[3] Ковтунова И.И. Русский язык. Вопросы структуры текста в трудах акад. В.В.Виноградова. – М.: Наука. – С. 4-5.

[4] Вейнман Р.А. Уровень текста. Филологичекие науке. 1988, №2. – С. 68; Смелкова. Слова в художественном тексте. – М., 1980. – С. 3-4.

nini borligini bildirishdan tashqari, shu gapning tugallanish, keyingi gapning esa boshlanish chegarasini ham ko‘rsatadi. Biz so‘zlarning matn hosil qilishdagi vazifasiga ko‘proq e’tibor beramiz. I.R. Galperin esa matn birligini gapdan kattaroq deb tushuntiradi: «Matn katta hajmli obyektdir. Shu sababli uning tashkil etuvchilari ham gapdan ko‘ra kattaroq bo‘lishini talab etadi»[1].

Lekin ularning hech biri matnning barcha turlari uchun umumiy bo‘lgan mazmunni ifodalay olmaydi, chunki ta’rif beruvchilarning har biri matnning u yoki bu jihatinigina e’tiborga oladilar xolos. Biz mazkur ishimizda professor I.R.Galperinning ta’riflariga asoslanishni ma’qul ko‘rdik.

Ko‘plab sintaktik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, murakkab sintaktik butunlik (MSB) matnning asosiy birligi hisoblanadi. Quyi sath birliklarining asosida shakllangan MSB orqali kommunikativ akt mazmuniy tugallikka erishadi.

Tadqiqotchilarning ishlarida til tizimida gapdan keyin yuqori turguchi birlik MSB degan fikr ancha qat’iylashgan. Ta’kidlash kerakki, zamonaviy tilshunoslikda mazkur birlikni turlicha nomlashlar uchraydi: «frazadan katta birlik»(сверхфразовая единство – А.А.Булаховский), nasriy band (прозаическая строфа – Г.Я.Солганик), matn komponenti (компонент текста – И.А.Фигуровский), sintaktik kompleks (синтактический комплекс – А.И.Овсянникова), murakkab sintaktik butunlik (сложное синтактическое целое – А.М.Пешковский) va hokazo. Biz ushbu tadqiqotimizda «murakkab sintaktik butunlik» atamasini qo‘llashni joyiz deb bildik. Fikrimizcha, ushbu atama mazkur hodisaning mohiyatini aniqroq ifodalay oladi.

Hozirgi vaqtda MSB quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda:

1) semantik (mazmuniy) yo‘nalishda;
2) pragmatik (amaliy) yo‘nalishda;
3) sintaktik yo‘nalishda;
4) qo‘llanishiga ko‘ra.

Yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlar ichida MSBni sintaktik yo‘nalishdagi tadqiqi ancha muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritgan. MSB olimlar tomonidan ikki bosqichga bo‘lib o‘rganilgan:

a) gaplarning o‘zaro birikib, o‘zidan kattaroq bo‘lgan sintaktik birlikni hosil qilish yo‘llari va usullari;

b) bevosita matn tarkibiy qismlarini bog‘lovchi til birliklarining tadqiqi.

G.Ya.Solganik mustaqil gaplarning o‘zaro birikib MSB hosil qilish usullarini batafsil va ancha to‘liq o‘rgangan olimdir.

O‘tgan asrning 20-yillaridayoq tadqiqotchilar matnga alohida bir hodisa sifatida qaragan, matn yuzaga kelishining o‘ziga xos qonuniyatlari borligini payqagan edilar. M.M.Baxtin, B.B.Shklovskiy, B.Ya. Propp, B.V.Tomashevskiy va yana bir qancha olimlarning olib borgan izlanishlari,yaratgan ishlari shu vaqtga qadar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Parij tilshunoslik to‘garagi vakillari V.Matezeus, B.Gavranek, A.Yedlichka, K.Gauzenblas va boshqa olimlar matn tarkibi tahliliga turlicha yondashib ish ko‘rganliklarini va bu bilan matn tilshunosligiga salmoqli hissa qo‘shganliklarini ta’kidlash kerak.

Fransuz, nemis, chex va boshqa matn nazariyotchillarining matn tuzilishi, ontologiyasi va matn chegaralari haqidagi ishlari ham e’tiborga molik.

Turkiy filologiyada ham ushbu masalalar keng muhokama qilinmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida mustaqillik yillaridan so‘nggina bu masalaga jiddiy e’tibor qaratildi.

O‘zbek tilida murakkab sintaktik butunliklar (MSB) bir nechta shakllarda uchraydi. Bu tuzilmalar jumladan, murakkab gaplar, gaplararo birikmalar, va gap ichidagi birikmalar shaklida namoyon bo‘ladi. Har bir tuzilma o‘ziga xos sintaktik va semantik vazifalarni bajaradi. Masalan, murakkab gaplar bir nechta mustaqil gaplarning ma’noviy birligini ta’minlaydi, gaplararo birikmalar esa turli gaplarni mantiqiy va ma’noviy jihatdan bog‘laydi.

MSB o‘zbek tilida turli funktsiyalarni bajaradi. Bu tuzilmalar nutqni aniqroq va ta’sirchan qilishga yordam beradi, shuningdek, muayyan vaziyatlarda gapiruvchining niyatini aniqroq ifodalashga imkon beradi. MSBning analizidan so‘ng, tilning ifodaviy imkoniyatlarining kengligi va murakkablik darajasi aniqlanadi.

MSBlarni tahlil qilishda sintaktik, semantik va pragmatik yondashuvlar qo‘llaniladi. Sintaktik yondashuv tuzilmaning tuzilishini, semantik yondashuv esa ma’noni, pragmatik yondashuv gapiruvchining maqsad va niyatini o‘rganadi. Ushbu tahlillar yordamida o‘zbek tilining murakkab sintaktik tuzilmalarini chuqurroq tushunish mumkin bo‘ladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi MSB turlari va ularning qo‘llanilishi tilning boy ifodaviy imkoniyatlarini ochib beradi. Masalan, murakkab gaplarning keng tarqalganligi va turli xil qo‘llanilishi, gapiruvchining fikrini aniq va tushunarli tarzda ifodalashga imkon beradi. Shuningdek, MSB tahlili orqali o‘zbek tilining uslubiy xususiyatlarini va ifodaviy imkoniyatlarini yanada yaxshiroq tushunish mumkin.

MSB o‘rganish sohasidagi kelajakdagi tadqiqotlar yanada chuqurroq tahlil metodlarini ishlab chiqishni, shuningdek, tilning turli uslublaridagi MSB qo‘llanilishini o‘rganishni talab qiladi. Bu o‘rganishlar o‘zbek tilshunosligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi va til o‘qitish metodikalarini takomillashtirishga yordam beradi.

[1] Гальперин И.Р. Текст как обхект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С. 8.

Murakkab sintaktik butunliklar (MSB) o‘rganishining o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni beqiyosdir. Ushbu tahlil natijalari MSBlarning tilning ifodaviy quvvatini oshirishdagi ahamiyatini yorqin namoyish etdi. MSBlar o‘zbek tilining ma’no berish jarayonida muhim rol o‘ynaydi va tilning semantik boyliklarini to‘la-to‘kis ochib beradi. Ularning tahlili orqali o‘zbek tilining sintaktik xilma-xilligi, ifodaviy imkoniyatlar va uslubiy xususiyatlar chuqurroq tushuniladi.

Bizning tahlilimiz shuningdek, MSBlarning til o‘rganish va o‘qitishda qanday qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Til o‘qituvchilari va til o‘rganuvchilar uchun MSB tahlili juda qimmatli bo‘lib, u tilning murakkab tuzilmalarini o‘zlashtirishda yordam beradi. Bundan tashqari, MSB tahlili tilshunoslik sohasida yangi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi, bu esa ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Kelajakda MSBlarni yanada batafsil o‘rganish, o‘zbek tilining badiiy va ilmiy matnlaridagi qo‘llanilishini tahlil qilish orqali tilning uslubiy xilma-xilligini yanada yaxshiroq tushunish mumkin. Shuningdek, bu sohada amalga oshiriladigan ilmiy ishlar o‘zbek tilshunosligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida murakkab sintaktik butunliklarning tahlili nafaqat tilshunoslik sohasida, balki til o‘rganish va o‘qitish metodikasida ham yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu sohada olib boriladigan izlanishlar tilning strukturaviy va funktsional jihatlarini yanada chuqurroq tushunishimizga yordam beradi, bu esa o‘zbek tilini o‘rganish va o‘qitish sifatini yaxshilashga olib keladi.

Resume. This article is dedicated to studying the significance of complex syntactic unit (CSU) analysis in Uzbek linguistics and its role in the grammatical structure of the language. The article provides detailed information about the different types of CSUs, their structure, functions, and expressive capabilities. The methods of syntactic analysis and their application in the Uzbek literary language are also examined. The results demonstrate the importance of CSUs in ensuring the semantic and formal integrity of the Uzbek language and outline directions for future research.

Резюме. Данная статья посвящена изучению значимости анализа сложных синтаксических целых (ССЦ) в узбекском языкознании и их роли в грамматической структуре языка. В статье подробно описываются различные виды ССЦ, их структура, функции и выразительные возможности. Также рассматриваются методы синтаксического анализа и их применение в узбекском литературном языке. Результаты исследования демонстрируют важность ССЦ в обеспечении смысловой и формальной целостности узбекского языка и определяют направления дальнейших исследований.